



## SAHNALARDA YASHAR, BARHAYOT

**Muallif:** G'ayratjon Muxammadov Ahmadjon o'g'li<sup>1</sup>, prof. Mustafo Bafoyev

**Affilyatsiya:** K.Zaripov nomidagi Respublik Estrada – sirk kolleji va Yuqori Chirchiq 24-son BMSMning musiqiy – nazariy fanlar kafedrasida o'qituvchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14378731>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston davlat san'at arbobi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi “Kompozitorlik va cholg'ulashtirish” kafedrasida professori Mustafo Bafoyevning “Usmon Nosir” musiqali dramasi haqida so'z boradi va ushbu asar tahlil qilinib, ma'lumotlar ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** musiqali drama, kompozitor, dirijiyor, teatr, libretto, premyera, aktyor.

Musiqqa – inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi, hayotimizda keng o`rin tutgan, inson shaxsiyatining rivojlanishidagi muhim ahamiyatga ega bo`lgan san`at turidir.

Musiqqa nafosatni tarbiyalaydi. U atrofdagi narsalarni to`g`ri idrok etish, anglash va qadrlashga o`rgatadi. Insonning ma`naviy dunyoqarashini shakllantiradi.

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar zaminida o`lib kelayotgan yosh avlod vakillarini har tomonlama bilimli, intellektual salohiyatli, jismonan va ma`nan kuchli bo`lib yetishlari nihoyatda muhimdir. Shu o`rinda, muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan 28.11.2018 yildagi PQ-4038-son “O`zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi qarorida xalqimizning ma`naviy-ma`rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san`at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo`llab-quvvatlash bo`yicha ahamiyat qaratilgan.

Binobarin, o`lib kelayotgan yosh avlodning ma`naviy kamol topishlarida ajdodlarimizning vatanparvarlik ruhiyatida qilgan jonkuyarliklarini anglashlari juda ham dolzarb va muhim sanaladi.

Manashu asnoda hozirgi kunda asosan milliy vatanparlik, xalqning jismoniy va ma`naviy tomonda erkka erishmoqligi uchun o`z jonlarini ham ayamagan “Jadidchilarimiz” ning faoliyati va ularning kamolotga erishish maqsadlari yo`lida qilgan jonkuyarliklarini anglashga qaratilgan bir qator adabiyotlar yozilib, video va audio materiallar tayyorlanib, joylarda targ`ibot hamda tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Vaholanki, o`z – o`zidan bu holat musiqqa ijodkorlari zimmasiga ham shu maqsad va olib borilayotgan ishlar zaminida o`z hissalarini qo`shish yo`lida qator vazifalarni yuklaydi.

Binobarin yaqin yillar ichida O`zbek kompozitorlari tomonidan tarixiy shaxslarimiz hamda jadidlarimizga bag`ishlangan bir nechta asarlar ijro qilinib, xalqqa havola qilindi.

Xususan: O`zbekiston davlat konservatoriyasi professori Mustafo Bafoyevning "Usmon Nosir" musiqali dramasi, O`zbekiston davlat konservatoriyasi professori Oydin Abdullayevaning "Bizga maktab kerak yohud Zamon avloniysi" nomli musiqali dramasi va yana shu kabi asarlar shular jumlasidandir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.12.2021-yildagi PQ-64-son "Opera va balet san`atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarorida mamlakatimizda opera va balet san`atini yanada rivojlantirish, Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston davlat akademik katta teatri faoliyatini takomillashtirish, milliy opera va balet san`atini keng targ`ib etish, uning jahon san`at olamida tutgan o`rni va mavqeyini yanada mustahkamlashga qaratilgan.

O`zbekiston kompozitorlik ijodi musiqa san`atimizda yosh ijodiyot turi sifatida o`tgan asrda tamal toshi qo`yildi. Bu borada, mahalliy kompozitorlarni yetishtirish, mamlakatimiz musiqiy hayotida opera, balet, simfoniya, kamer-cholg`u, vokal janrlar kirib keldi va qisqa muddat ichida ushbu musiqiy navlarda milliy va xalqchil asarlar yaratildi. Asrimizning 20-yillariga kelib, o`zida shu an`analarni mujassam etgan, barcha musiqiy janrlarda ijod etib kelayotgan otaxon kompozitorlarimiz faoliyati bugungi musiqiy jarayonda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shunday ijodkorlar sirasiga, O`zbekiston Respublikasi san`at arbobi, kompozitor, dirijyor, xalqaro Amerika assotsiatsiyasi (ASCAP) a`zosi, "Fidokorona xizmatlari uchun" va "Mehnat shuhrati" ordenlari sohibi Mustafo Bafoevni keltirishimiz mumkin.

O`zbek adabiyoti va ijodiy madaniyatining eng kata shakillanish davrida kata roli bo`lgan shoir va adabiyotshunoslardan biri bo`lmish Nosirov Usmon o`zbek she`riyati va adabiyotining yorqin vakilidir. Uning xorijiy davlatlarning yetuk yozuvchilari tomonidan yozilgan eng sara asarlarni o`zbek tiliga tarjima qilgani Usmon Nosir ijodidagi samarali ishlaridan biridir. Shu jumladan A.S.Pushkinning "Boqcharoy fontani", Lermontovning "Demon" ("Iblis") dostonlari va boshqalar o`zbek kitobxonlarining qalbiga yetib borgan. Uning ijodida she`riy to`plamlar: "Quyosh bilan suhbat", (1912), "Safarbar satrlar" (1932), "Traktorobod" (1934), "Yurak" (1935), hikoyalar, "Nil va Rim", "Norbo`ta", "Naxshon" larni misol qilib ko`rsatishimiz mumkin.

Mashxur shoir va adabiyotshunos Usmon Nosir hayoti va ijodiy yo`li bo`yicha 2022-yil ustoz kompozitor Mustafo Bafoev tomonlaridan davlat buyurtmasi asosida musiqali drama yozilgan va sahnalashtirilgan. Ilk premyerasi shu yilning 6-iyul kuni Muqimiy nomidagi O`zbekiston davlat musiqali teatrida bo`lib o`tgan.



“Usmon Nosir” musiqali dramasi libretto muallifi Javlon Jovliyev, rejissiyori Doston Haqberdiyev, rassom Mirjalol Xoliqov, adabiy maslahatchi Naim Karimovlardir. Premyera tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olingan. Orkestr va solistlarning mahoratli ijrosi musiqa va dramani o‘zaro uyg‘un holatda namoyish etilishiga yordam berdi. Mazkur musiqali drama teatrning doimiy repertuaridan joy olgan bo‘lib har oyda bir necha bora tomoshabinlarga havola qilinadi. Bu esa asarning yetuk darajada yozilganidan dalolatdir.

Spektaklda Ravshan Ibragimov, Mehri Bekjonova, Ma’suda Otajonova, Oqila G‘ulomova, Jamolbek Valiev kabi mahoratli aktyorlar rollar ijro etishgan.



Spektaklda Usmon Nosirning jazo bo‘linmasidagi so‘ngi kunlari tasvirlangan bo‘lib, bo‘lib o‘tgan voqeiliklar go‘yoki shoirning hayot olami ila bevosita sahnada gavdalanadi. O‘sha zamonning qiyinchiliklari, insonlarning erksizligi va marifatparvarlarga nisbattan qilingan tuxmat va bo‘xtonlar, ba’zi ayyor shaxslarning esa do‘stman deb turib o‘z manfaatlarini yo‘lida insonlarning ortidan xanjar urishlari mualliflar va ijrochilar tomonidan mohirlik bilan sahnalashtirilgan.

Asarda bosh qahramonlarning xarakterlari bir necha bor o‘zgaradi. Misol tariqasida Usmon Nosir qamoqdan oldin yonib, kuch – g‘ayratga to‘lib turgan holda ko‘ringan bo‘lsa, qamoqdan so‘ng hammani o‘ziga do‘st deb bilganidan pushaymon, xatolarini eslayotgan, onasining sog‘inchidan ado bo‘lgan inson sifatida ko‘rinish beradi. Usmon Nosirning oldidagi bir necha insonlar esa, asar boshida do‘stingman deb turib keyinchalik Usmonning ortidan yolg‘on tuxmatlar qiladigan ayyor inson sifatida, asarning finalida esa yana o‘shalar yana haqiqiy do‘stdek gavdalanishadi.

Musiqali dramada ko‘plab ariya va xor nomerlarini tinglashimiz mumkin. Shulardan eng mashxurlari xor va solistlar ijro qiladigan “Yurak” va finaldagi “Bog‘im” nomerlaridir.

Ushbu asar Muqumiy nomidagi musiqali drama teatrining doimiy repertuaridagi asarlardan biridir. Asar ijrosi yaxshi bo‘lsada texnik tomondan biroz kamchiliklar yuzaga keldi. Xususan, sahna almashish paytida turli xil shovqinli tovushlar eshitilib qolinmoqda. O‘ylaymizki bu kamchiliklar ham tez orada teatr tashkilotchi va texnik hodimlari tomonidan bartaraf etilib, tomoshabinlar ommasiga bekamu ko‘st taqdim etiladi.

S. ГИМ Бо ГИМ Бо ГИМ

A. Бо ГИМ Бо ГИМ

T. ГИМ Бо ГИМ Бо ГИМ

B. Бо ГИМ Бо ГИМ

Pno.

Musiqali drama salkam 1 oy ichida yozilgan bo'lsada kompozitor Mustafobafoevning yetuk mahorati sababli professional darajada sahna yuzini ko'rди. Yirik hajmdagi asarlarni tez va sifatli yozish qobiliyati kompozitorning ijodiy salohiyati yuqori darajada ekanligidan dalolatdir. Jadidchilarning ijodiy qiyofasini to'la to'kis ochib berish orqali keng xalq ommasiga o'rnak sifatida ko'rsatish taqsinga loyib bo'lib, bunday ijodiy jarayonlarga boshqa kompozitorlar tomonidan ham murojaat qilib kelinmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Jabborov A. "Musiqiy drama va komediya janrlari o'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida".

Jo'rayev N. (2004). "O'zbek xalq baxshichiligi". Toshkent: Ma'naviyat.

Muminov A. (1997). "Doston va baxshichilik san'ati". Toshkent: Sharq nashriyoti.

Nazarov Q. (2016). "Xorazm baxshi-dostonchiligining badiiy xususiyatlari". Toshkent: Fan va texnologiya.